

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI	10-16
<i>Atamuratova Dilafroz</i> TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI	17-22
<i>Abdushukurova Iqbol</i> TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI	23-27
<i>Redjapov Doniyor</i> JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA	28-31
<i>Sultanov Samandar</i> QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	32-35
<i>Matyakubov G'ayrat</i> XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR).....	36-39
<i>Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA)	40-45
<i>G'aniyev Mirjalol</i> QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIIY HAYOT	46-51

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullaev Altinbek</i> KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52-66
<i>Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira</i> INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	67-71
<i>Rustamova Sayyora</i> STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI	72-77
<i>Буранова Лола, Арипова Азиза</i> РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ	78-87
<i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i> KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYLLARINI QO'LLASH AHAMIYATI	88-94

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Saidov Hakim G'afurovich</i> TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA	95-98
<i>Kadirova Ziyoda</i> ILMIY IJODNING IJTIMOIIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCAMLARI	99-104

<i>Muzaffarov Navruzxon Baxronovich</i> SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI	105-108
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI	109-113
<i>Karimova Lola Muzafarovna</i> IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI	114-119
<i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i> JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	120-125
<i>Djurayev G'olib</i> JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA ERKINLIK MASALASI	126-130
<i>Rajabov O'tkirjon</i> KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI	131-134
<i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i> GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI	135-139
<i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i> MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI	140-144

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i> MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS	145-151
<i>Murtazayeva Xadicha</i> INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	152-155
<i>Несунбаева Саодатхан</i> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА"	156-160
<i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i> XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	161-165
<i>O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi</i> TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI	166-170

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salaev Nodirbek</i> PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	171-178
<i>Турсунов Ойбек Батирович</i> МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	179-184
<i>Xakimova Inobatxon</i> XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	185-191

<i>Мардонов Амиржон Шерзод угли</i> ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА	192-202
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	203-207
<i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	208-215
<i>Khudayberganova Nigina To'liqin qizi</i> THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW	216-221
<i>Саидов Бобур Бахромжонович</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ...	222-229
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJIRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI	230-236
<i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i> DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI	237-248
<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI	249-256
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i> SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI	257-263
<i>Khayrova Madina Rasimovna</i> NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI	264-269
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i> MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI	270-273
<i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i> AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI	274-278
<i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i> NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH	279-285
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> TABIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI	286-290

Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY 291-294

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

RECONSTRUCTIVE ANALYSIS OF WORKS BY ARTISTS WHO WORKED IN THE STILL LIFE GENRE

Khayrova Madina Rasimovna

Gulistan State Pedagogical Institute
1st-year Master's Student in Fine Arts

Abstract. This article is dedicated to analyzing the role of the still life genre in visual art and exploring its aesthetic and artistic potential. It examines the works of artists who have contributed to this genre through a reconstructive analysis approach. This method allows for a comprehensive study of artworks not only in terms of their external form and subject matter but also by considering the historical context of their creation, the spirit of the era, the individual artistic style of the painter, and the embedded aesthetic concept. The article provides a scholarly and theoretical evaluation of still life works by Western artists such as Pieter Claesz, Jean-Baptiste-Siméon Chardin, Frans Snyders, Igor Grabar, Pavel Kuznetsov, and Pyotr Konchalovsky. At the same time, it analyzes the works of prominent Uzbek artists - including Chingiz Akhmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, and Bobur Ismoilov - who have contributed significantly to the still life genre. Their works are explored for the interplay of national identity, aesthetic reflection, color harmony, and elements of modernity.

Keywords: esthetic thinking, professional competence, national identity, still life, modernity, pedagogical approach.

NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI

Khayrova Madina Rasimovna

Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san'at 1-bosqich magistranti
E-mail: madinaxayrova050@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola natyurmort janrining tasviriy san'atdagi o'рни va uning estetik-badiiy imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, rassomlarning ushbu yo'nalishda yaratgan asarlari rekonstruktiv tahlil asosida o'rganiladi. Rekonstruktiv tahlil metodikasi orqali san'at asarlari faqat tashqi shakli va mavzusi bilan emas, balki ularning yaratilish sharoiti, davr ruhiyati, individual rassomlik uslubi va estetik g'oyasi bilan birgalikda chuqur tahlil qilinadi. Maqolada G'arb san'ati vakillari — Piter Klays, Jan Batist Sharden, Frants Snyders, Igor Grabar, Pavel Kuznetsov, Pyotr Konchalovskiy kabi rassomlar natyurmortlariga ilmiy-nazariy baho berilishi bilan birga, o'zbek tasviriy san'ati vakillari — Chingiz Ahmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Bobur Ismoilov kabi san'atkorlarning natyurmort janridagi asarlari ham tahlil qilinadi. Ularning asarlarida milliylik, estetik mushohada, ranglar uyg'unligi va zamonaviylik unsurlarining o'zaro bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: estetik tafakkur, kasbiy kompetensiya, milliylik, natyurmort, zamonaviylik, pedagogik yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N40>

KIRISH

Hozirgi zamon tasviriy san'at ta'limida natyurmort janri o'quvchilarning badiiy didini shakllantirish, kompozitsion tafakkurini rivojlantirish, ranglar uyg'unligini anglash va realistik tasvirlash malakasini mustahkamlashda muhim vositalardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada aynan shu janrning tarixiy-estetik oʻrni va pedagogik ahamiyati chuqur ilmiy tahlil etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi - turli davrlarda va maktablarda natyurmort janrida ishlagan rassomlar asarlarini rekonstruktiv yondashuv asosida tahlil qilish, yaʼni ularni faqat tashqi koʻrinish yoki mazmun bilan emas, balki ularning yaratilgan davri, ijtimoiy-madaniy konteksti, individual uslubiyati va estetik qarashlari bilan birga oʻrganishdir. Rassomdan imkon qadar aniq, minimal vositalardan foydalangan holda tasvirni, haqiqiy modeldagi taassurotni yetkazish talab etiladi. Klassik modellashirishga murojaat qilmasdan, obyektning hajmini, materialini, teksturasini koʻrsatish kerak. Predmetning shaklini tahlil qilingan holda, obyektning real tasvirdan rang tekisligiga oʻtkazadigan sivilizatsiyalashgan modellashirish va tanlash kerak boʻladi [1, 104-b.]. Bunday tahlil natyurmort asarlarini oddiy predmetlar toʻplamidan iborat tasvir deb emas, balki zamon ruhi, rassom shaxsiyati va badiiy tafakkurning bir butun ifodasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Insonning atrofini oʻrab turgan real maishiy, joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi. Shuningdek, bu janrda yaratilgan rassomlik asari ham natyurmort deb ataladi. Asosan, dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika)da, qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef)da ishlanadi. Natyurmortda "jonsiz buyumlar" (Masalan, uy-roʻzgʻor buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari (stoldagi baliq, vazadagi gul va boshqalar) ham tasvirlanadi. Asosiy mavzuni toʻldirish uchun baʼzan natyurmortga odamlar, hayvonlar, qushlarni ham kiritish mumkin. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon boʻladi.[2, 26-b.]. Maqolada Gʻarb sanʼatining mashhur vakillari - Piter Klays, Jan Batist Sharden, Frants Snyders, Igor Grabar, Pavel Kuznetsov, Pyotr Konchalovskiy kabi rassomlarning natyurmort asarlari tahlil qilinadi. Ularning har biri ushbu janrga oʻziga xos yondashuv olib kirgan: Sharden oddiy maishiy predmetlarni goʻzallik timsoliga aylantirgan boʻlsa, Snyders ulkan ovqat sahnalarini hayotiy detallar bilan boyitgan, Grabar va Kuznetsov esa rus realizmi va postimpressionizm yoʻnalishlarida ish olib borgan. Shu bilan birga, maqolada oʻzbek tasviriy sanʼati vakillari - Chingiz Ahmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Bobur Ismoilov kabi rassomlarning natyurmort janrida yaratgan asarlari ham tahlil qilinadi. Bu rassomlar milliylik, madaniy qadriyatlar, ranglar uygʻunligi va zamonaviy sanʼat uslublari sintez qilish orqali oʻzbek natyurmort sanʼatini rivojlantirdilar. Ularning asarlarida xalq hunarmandchiligi, anʼanaviy hayot tarzi, estetik mushohada va falsafiy ramzlar oʻz ifodasini topgan. Natyurmort sanʼatini bu tarzda rekonstruktiv tahlil qilish, ayniqsa, boʻlajak tasviriy sanʼat oʻqituvchilari uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu ularning nafaqat kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi, balki oʻquvchilarga sanʼatni anglash va estetik fikrlash malakalarini singdirishda samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, maqolada taqdim etilgan tahlillar natyurmort janrining chuqur badiiy va tarbiyaviy salohiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Bu janr orqali sanʼatshunoslik bilimlari, ranglar bilan ishlash madaniyati, kompozitsion fikrlash va milliy qadriyatlarga asoslangan estetik dunyoqarash shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda natyurmort janrida ijod qilgan Gʻarb va oʻzbek rassomlarining asarlari rekonstruktiv, sanʼatshunoslik, pedagogik va empirik yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilindi. Har bir metod oʻziga xos izlanish tamoyillariga asoslangan boʻlib, quyidagicha amaliy misollar bilan boyitilgan:

1. Rekonstruktiv tahlil metodi: Mazkur metod orqali rassomning ijodi va asar yaratilgan davr konteksti o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Misol: Jan Batist Shardenning "Kichik nonushta" (1739) asari XVII-XVIII asr Fransiya jamiyatidagi o'rta qatlamning hayot tarzi, ularning badiiy-estetik qadriyatlari asosida rekonstruksiya qilindi. Asardagi oddiy predmetlar orqali davrning oddiylikka qaytish g'oyasi va "g'amxo'rlik estetikasini" ko'rsatish maqsadi yoritildi.

2. San'atshunoslik tahlil metodi: Asarlarning shakl, rang, yorug'lik va kompozitsion qurilishi texnik jihatdan tahlil qilindi. Misol: Bahodir Jalolovning "Yozgi mevalar" nomli natyurmorti rang-barang mevalar orqali o'zbek milliyligining yorqinligini ko'rsatadi. Ushbu asarda yorug'lik manbasining tabiiylik bilan uyg'unligi, mevalarning fakturasini aniqlik bilan aks ettiruvchi yozma uslub tahlil qilindi.

3. Komparativ (taqqosiy) metod: G'arbiy va o'zbek san'atkorlarining asarlari o'zaro solishtirildi. Misol: Piter Klaysning barokko uslubidagi "Soat va tasbehli natyurmorti" bilan Rauf Tulyaganovning "Qadim buyumlar bilan natyurmorti" taqqoslandi. Ikkala rassomda ham vaqt, xotira va hayotiylik ramziy obrazlar orqali aks ettirilgan bo'lib, biri yevropacha dramatik nuqtai nazardan, ikkinchisi esa milliy xotira va qadriyatlar timsoli sifatida talqin qilindi.

4. Tafsilotli vizual tahlil metodi: Asardagi har bir detal, uning joylashuvi va ramziy ifodasi o'rganildi. Misol: Chingiz Ahmarovning natyurmortidagi sopol idish, ipak mato, non va mevalar — o'zbek madaniyati, mehmondo'stlik va hayot falsafasining badiiy ifodasidir. Bu elementlar oddiy predmet bo'lib ko'rinsa-da, milliy identitetni vizual kodlar orqali ifodalaydi.

5. Pedagogik-analitik yondashuv: Asarlarning ta'limiy ahamiyati va didaktik imkoniyatlari aniqlanib, pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi. Misol: Akmal Nurning rangtasvirdagi natyurmortlari san'at darslarida talabalarga hayotiy kuzatuvchanlikni, predmet fakturasini tasvirlashda noziklikni o'rgatish uchun o'quv materiali sifatida foydalanildi. Talabalar ushbu asarlar orqali ranglar uyg'unligi va kompozitsion markazni belgilash ko'nikmasini shakllantirdilar.

6. Ilmiy-empirik kuzatuv va tahlil:

San'at muzeylari, kataloglar va raqamli arxivlar orqali amaliy kuzatuvlar o'tkazildi. Misol: Toshkent San'at muzeyi va O'zbekiston Badiiy Akademiyasi fondidagi o'zbek rassomlarining natyurmort asarlari tahlil qilinib, ularning katalog tavsiflari bilan solishtirildi, asarlar yaratilgan yillar, texnika va materiallar haqidagi ma'lumotlar umumlashtirildi. Bu metodlar asosida amalga oshirilgan tahlil natyurmort janrining nafaqat badiiy, balki pedagogik, estetik va ma'naviy tarbiyaviy salohiyatini ochib beradi. Bu yondashuv bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Mazkur ilmiy maqola doirasida amalga oshirilgan tahliliy, nazariy va empirik tadqiqotlar asosida natyurmort janrida ishlagan rassomlar asarlarini rekonstruktiv yondashuv asosida o'rganish quyidagi muhim ilmiy-nazariy va amaliy natijalarni yuzaga chiqardi: Natyurmort janrining tasviriy san'atdagi mustaqil badiiy ifoda vositasi sifatidagi o'rni mustahkamlandi. O'rganilgan san'at asarlari asosida natyurmort nafaqat kompozitsion mashq yoki texnik ko'nikmalarni mustahkamlash vositasi, balki rassomning estetik qarashlari, dunyoqarashi va ichki kechinmalarini vizual ifodalash imkonini beruvchi yuksak badiiy shakl ekani isbotlandi. Rekonstruktiv tahlil metodining natyurmort asarlarini tahlil qilishdagi samaradorligi tasdiqlandi. Rangtasvir san'atining tengsiz ustasi - fransiyalik rassom Jan Batist Simeon Shardenning «San'at atributlari» asarini kuzatganimizda, unda oddiy buyumlarning yuksak

badiiy tasviri aks etganligining guvohi bo'lamiz. N. Kashina, Z. Kovalevskaya, Yu. Yelizarov, R. Ahmedov, G'Abdurahmonov, N. Ten, A. Yunusov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar tabiat yaratgan noz-ne'matlarga bo'lgan mehrlarini o'z asarlarida ifodalaganlar. Natyurmort tasviriy san'atning alohida janri hisoblanadi. Natyurm ortda shakli, mazmuniga qarab har bir buyumning tutgan o'rnini yoritib berish lozim. Tasvirlanayotgan buyumlarning shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatdan bir-biridan farq qilishiga alohida ahamiyat berish kerak. [3, 24-b.]. Mazkur metod yordamida rassomning asari san'atshunoslik tahlili bilan birga, madaniy-falsafiy, tarixiy va psixologik qatlamlar bilan boyitilgan holda o'rganildi. Bu esa asarning chuqur ma'nosini ochish, uni kontekstual talqin qilish imkonini berdi. Masalan, Pyotr Konchalovskiyning "Oq xalatli natyurmorti" orqali XX asr boshidagi rus jamiyatidagi zamonaviylik va uy muhitining uyg'unligi ifodalangan. O'zbek rassomlarining natyurmortga yondashuvida milliy qadriyatlar, hayotiylik va ramziylik kuchli ifodalangani aniqlandi. Chingiz Ahmarov, Javlon Umarbekov, Akmal Nur kabi rassomlarning asarlarida qadimiy buyumlar, non, choynak, meva va matolar tasvirlanib, o'zbek xalqining kundalik hayotidagi go'zallik va ramzlar badiiy ifoda topgan. Bu esa milliy identitetni vizual ifodalashning samarali usuli sifatida e'tirof etildi. Talabalar bilan olib borilgan kuzatuv va tajriba ishlari natyurmort asarlarini tahlil qilish orqali ularning badiiy-estetik tafakkuri va ijodiy yondashuvi rivojlanishini ko'rsatdi. Amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etgan talabalar rassom asarini faqat nusxa ko'chirish emas, balki uni tahlil qilish, mazmun va ramziy qatlamlarini tushunishga intilishdi. Bu esa talabalarda kuzatuvchanlik, fikr bildirish, badiiy tafsir qilish va mustaqil ijod qilish qobiliyatini rivojlantirdi. San'at asaridagi predmet tanlovi orqali ijtimoiy-estetik g'oyalar ochib berilishi mumkinligi isbotlandi. G'arbiy rassomlar - Sharden, Kalf, Grabar asarlarida kitob, musiqiy asbob, o'lchov moslamalari kabi predmetlar orqali ilm-fan, ma'rifat va madaniyat qadriyatlari targ'ib qilingan bo'lsa, o'zbek rassomlari asarlarida milliy urf-odatlar, mehmondo'stlik, tabiat bilan uyg'unlik ramziy tarzda berilgan. [4, 82-b.] Milliy san'at asarlarini rekonstruktiv tahlil qilish orqali didaktik material sifatida foydalanish bo'yicha metodik asoslar ishlab chiqildi. Rassomlik ta'limida natyurmortni o'rganish uchun vizual tahlil kartochkalari, savol-javobli metodikalar, ramzlarni aniqlash mashqlari, milliy qadriyatlar asosida mavzu tanlash kabi amaliy usullar ishlab chiqildi. Bu orqali talabalarning tanqidiy fikrlash va badiiy tafsirga tayangan yondashuvlari shakllandi.

Maqola mazmunida o'zbek san'at maktabining natyurmortda o'ziga xos estetik tamoyillari shakllangani dalillandi. Bu maktabda asosan oddiy, ammo chuqur ma'no yuklaydigan predmetlar orqali badiiy mushohada, rang va ritm orqali his-tuyg'ularning nozik ifodasi, rang tanlashda esa milliylik va zamonaviylik uyg'unligi ustuvorlik qilmoqda. Bu esa o'zbek natyurmort san'atining mustaqil uslubiy maktab sifatida qaralishini ta'minlaydi. Natyurmort janri orqali xalqning madaniy xotirasi va tarixiy ongini san'at vositasida uzluksiz ifodalab borish imkoniyati asoslandi. Har bir asarda o'z zamonasi, hayot falsafasi va jamiyat ko'rinadi. Demakki, natyurmort oddiy ko'rinishga ega bo'lsa-da, u tarixiy hujjat sifatida ham qaralishi mumkin. Bu esa san'atshunoslikni tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya fanlari bilan integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natyurmort janrining tasviriy san'atdagi estetik, pedagogik va madaniy-falsafiy ahamiyatini keng yoritishga xizmat qildi. Rekonstruktiv tahlil yondashuvi orqali rassomlar ijodi faqat tasviriy vositalar darajasida emas, balki ularning ichki mazmuni, tarixiy konteksti va estetik g'oyalari nuqtai nazaridan keng muhokama qilindi. Avvalo, natyurmortning vizual tafakkurni rivojlantiruvchi vosita sifatidagi o'rni tasdiqlandi. Bu janr o'quvchi va tomoshabinni realistik tasvirlar orqali hayotiy tafsilotlarga chuqur e'tibor bilan qarashga, shakl va predmetlar ortidagi ramziy ma'nolarni ilg'ashga undaydi. Ayniqsa, rekonstruktiv yondashuv orqali asardagi har bir detal mustaqil semantik yukka ega ekani aniqlandi. Tadqiqot davomida shuni ko'rish mumkinki, G'arb rassomlari natyurmort orqali diniy, ma'rifiy va ekzistensial g'oyalarni ifodalashga moyil bo'lgan, bu esa ularning asarlarida drammatizm va falsafiy chuqurlikni yuzaga keltirgan. Masalan, Sharden va Snyders asarlarida hayotning foniyligi, vaqtning o'tkinchiligi, insoniy mehnat va mehnatkashlik madh etilgan. Bu jihatlar kompozitsiyadagi predmetlar tanlovi, yorug'lik-soya bilan ishlash texnikasi va ranglar uyg'unligi orqali ochib berilgan. O'zbek rassomlarining natyurmortga yondashuvida esa estetik mushohada, milliy qadriyatlar va hayotiy realiyalarning ifodasi ustuvor bo'lmoqda. Misol uchun, Chingiz Ahmarov yoki Rauf Tulyaganov asarlarida xalq amaliy san'ati unsurlarini - sopol idishlar, kashta, choynak, matolar kabi elementlarni tasvirlash orqali san'atda milliylikni aks ettirishga intilish ko'zga tashlanadi. Bu jihatlar orqali natyurmort xalq hayotining vizual hujjatiga, madaniy xotira manbaiga aylanadi. Muhokama jarayonida aniqlanganki, natyurmort janri talabalarining estetik tafakkuri va badiiy idrokini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. [5, 56-b.] Rassomlar asarlarini tahlil qilish orqali talabalar badiiy asarni chuqur o'rganish, ramziy qatlamlarni talqin qilish, individual fikr bildirish, milliy san'at maktablariga nisbatan estetik munosabat shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, natyurmort san'atini rekonstruktiv yondashuv asosida tahlil qilish uni faqat go'zallikni ifodalovchi janr emas, balki axborot, ma'no va estetik qadriyatlarni yetkazuvchi vosita sifatida ko'rishga yo'l ochadi. Har bir predmet - u non bo'ladimi, qadim idishmi, meva yoki kitob bo'ladimi - rassom uchun bir vosita, tomoshabin uchun esa ko'p qavatli ma'no tashuvchiga aylanadi. Shu bois, san'atshunoslikda bu yondashuvni chuqurlashtirish muhim ilmiy vazifa sifatida qaralmoqda. Shuningdek, muhokama davomida o'quv jarayoniga oid ayrim kamchiliklar ham aniqlangan. [6, 38-b.] Jumladan, ba'zi o'quv dasturlarida natyurmort janrining o'rganilishi yuzaki, faqat nusxa ko'chirish darajasida olib borilayotgani aniqlangan. Bu esa talabalarda asar mazmuniga kirib borish, tahliliy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, metodik tavsiyalarda rekonstruktiv, estetik va tafsiriy yondashuv asosida ishlab chiqilgan tahlil mashqlarini joriy qilish taklif etildi. Xulosa qilib aytganda, natyurmort janri faqat estetik zavq bag'ishlovchi emas, balki tarixiy tafakkur, madaniy xotira, milliylik, pedagogik kompetentsiya va estetik mushohada shakllantirish vositasi ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Bu esa ushbu janrni tasviriy san'at ta'limida chuqur va zamonaviy yondashuv asosida o'rganish zarurligini taqozo etadi.

XULOSA

Ushbu maqolada natyurmort janrining tasviriy san'atdagi badiiy, estetik va pedagogik imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida g'arbiy va o'zbek san'atkorlarining natyurmort asarlari rekonstruktiv yondashuv asosida o'rganilib, ularning mazmuniy

qatlamlari, kompozitsion xususiyatlari va estetik niyatlari chuqur tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi: Natyurmort - mustaqil badiiy janr sifatida san'atda chuqur estetik va ramziy ma'no yuklaydigan shakldir. U nafaqat predmetlarning real tasviri, balki rassom dunyoqarashining, davr ruhining va falsafiy-estetik g'oyalarning ifodasidir. Shu bois, bu janrni o'rganish san'atshunoslik va pedagogik nuqtai nazardan nihoyatda dolzarbdir. Rekonstruktiv tahlil metodi natyurmort asarlarini kontekstual, tarixiy va shaxsiy ijodiy yondashuv asosida anglash imkonini beradi. Bu uslub yordamida rassomning asari uning biografiyasi, davr realiyalari, madaniy qadriyatlari va estetik qarashlari bilan bog'lanib talqin qilindi. Bu esa tasviriy san'at tahliliga ko'p qavatli yondashuvni ta'minladi. O'zbek rassomlari ijodida natyurmort janri milliy estetik tafakkurning ifodasi sifatida shakllangani isbotlandi. Chingiz Ahmarov, Rauf Tulyaganov, Akmal Nur, Javlon Umarbekov va boshqa san'atkorlarning asarlarida o'zbek xalqining hayoti, urf-odatlar, madaniy qadriyatlari badiiy obrazlar vositasida aks ettirilgani, ularning ranglar, shakllar va materiallar orqali vizual talqini ochib berildi. Natyurmort janri ta'limda estetik tarbiya va badiiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi. Talabalar bilan olib borilgan amaliy mashg'ulotlar, tahliliy suhbatlar va kuzatuvlar natyurmort asarlarini rekonstruktiv tahlil qilish orqali ularning estetik didi, badiiy tafakkuri va ijodiy mushohada qilish ko'nikmalari rivojlanganini ko'rsatdi. San'at asaridagi predmetlar tanlovi orqali jamiyatlardagi g'oyaviy, axloqiy va estetik qadriyatlar aks ettiriladi. G'arb rassomlarida vaqt va ma'rifat, inson va fan, hayot va o'lim kabi g'oyalar ustuvor bo'lsa, o'zbek rassomlarida milliy urf-odatlar, hayotiy quvonch, madaniy meros ramziy elementlar sifatida berilgan. Natyurmortning zamonaviy ta'limdagi o'rni faqat tasviriy ko'nikmalar emas, balki tafakkur, kuzatuvchanlik, madaniy ong va milliy identitetni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu esa mazkur janrni tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlov dasturlarida chuqur o'rganilishini, zamonaviy metodika asosida yondashilishini talab etadi. Tadqiqot natijalari tasviriy san'at ta'limida natyurmort janrini o'rganishga innovatsion va chuqur didaktik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Rekonstruktiv, estetik, tafsiriy va taqqosiy metodlar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulot shakllari orqali talabalar san'at asariga chuqur kirib borish, mustaqil fikr yuritish va badiiy mulohaza qilish malakasini egallaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xayrov R.Z. "Dekorativ Rangtasvir", T.: "Ilm Ziyo Zakovat", 2022. -171 b.
2. Jumaboyev N. "Rangtasvir", T.: "Ilm Ziyo Zakovat", 2023. -104 b.
3. Abdirasilov S. Boymetov B. N.Tolipov "Tasviriy san'at", T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2006. -197 b.
4. Maxmudov B., Xasanova F. Rangtasvir va chizmatasvirda badiiy yechim. Qo'llanma. - Toshkent: Nodirabegim, 2019. - 120 b.
5. Nurmatov E. "Rangtasvir".-T.: "Info Capital Group", 2018.-141-b.
6. Mamatova A-X. "Rangtasvir va Chizmatasvir fanlaridan o'quv-uslubiy ko'rsatmalar".- T.: "Fan va texnologiya", 2017.-52-b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).